

KONFERENSIYA

“JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY
YO’NALISHLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR”



RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI

2025-yil 21 noyabr

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY
UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI**



**JIZZAX VILOYATI IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
*mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari
to‘plami*
(2025-yil 21-22-noyabr)

JIZZAX-2025

Jizzax viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari: muammo va yechimlar. Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari to‘plami – Jizzax: O‘zMU Jizzax filiali Iqtisodiyot va turizm kafedrası, 2025-yil 21-22-noyabr. 557-bet.

Respublika miqyosidagi ilmiy-texnik anjuman materiallarida zamonaviy kompyuter ilmlari va muhandislik texnologiyalari sohasidagi innovatsion tadqiqotlar aks etgan.

Globalashuv sharoitida davlatimizni yanada barqaror va jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar samarasini yaxshilash sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Zero iqtisodiyotning, ijtimoiy sohalarni qamrab olgan modernizatsiya jarayonlari, hayotning barcha sohalarini liberallashtirishni talab qilmoqda.

Ushbu ilmiy ma‘ruza tezislari to‘plamida mamlakatimiz va xorijlik turli yo‘nalishlarda faoliyat olib borayotgan mutaxassislar, olimlar, professor-o‘qituvchilar, ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarining ilmiy xodimlari, tadqiqotchilari, magistr va talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari mujassamlashgan.

Mas‘ul muharrirlar: DSc.prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M.

Tahrir hay‘ati a‘zolari: p.f.d.(DSc), prof. Turakulov O.X., t.f.n., dots. Baboyev A.M., t.f.f.d.(PhD), prof. Abduraxmanov R.A., p.f.f.d.(PhD) Eshankulov B.S., p.f.n., dots. Alimov N.N., p.f.f.d.(PhD), dots. Alibayev S.X., t.f.f.d.(PhD), dots. Abdumalikov A.A, p.f.f.d.(PhD) Hafizov E.A., f.f.f.d.(PhD), dots. Sindorov L.K., t.f.f.d.(PhD), dots. Nasirov B.U., b.f.f.d. (PhD) O‘ralov A.I., p.f.n., dots. Aliqulov S.T., t.f.f.d.(PhD) Kuvandikov J.T., i.f.n., dots. Tsoy M.P., Sharipova S.F., Jo‘rayev M.M.

Mazkur to‘plamga kiritilgan ma‘ruza tezislarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlarning to‘g‘riligi hamda tanqidiy fikr-mulohazalar, keltirilgan takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

23. Lee, Y. H., & Tsai, C. C. (2022). Effects of mastery learning on academic achievement: A meta-analysis. *Educational Research Review*, 35, 100425.
24. McClarty, K. L., & Varghese, C. (2021). Competency-based education: An overview of research and practice. *Educational Measurement: Issues and Practice*, 40(2), 45–57.
25. Nodine, T. R. (2016). How did we get here? A brief history of competency-based higher education in the United States. *The Journal of Competency-Based Education*, 1(1), 5–11.
26. Ordonez, B. (2014). Competency-based education: Changing the traditional college degree power, policy, and practice. *The Journal of Continuing Higher Education*, 62(2), 128–130.
27. Ruiz, M., & Ortega, P. (2023). Student motivation and engagement in competency-based programs: A mixed-methods study. *International Journal of Educational Technology in Higher Education*, 20(1), 1–18.
28. Schraw, G., & Dennison, R. S. (1994). Assessing metacognitive awareness. *Contemporary Educational Psychology*, 19(4), 460–475.
29. Soares, L. (2012). *A "disruptive" look at competency-based education: How the innovative use of technology will transform the college experience*. Center for American Progress.
30. Zimmerman, B. J., & Schunk, D. H. (2011). *Self-regulated learning and performance: An introduction and an overview*. In B. J. Zimmerman & D. H. Schunk (Eds.), *Handbook of self-regulation of learning and performance* (pp. 1–14). Routledge.

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISHNING O‘ZIGA XOS YONDASHUVLARI

Tashbayev Asliddin Kumakovich

*O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali, O‘zbekiston
asliddintashbayev@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqolada korrupsiyani huquqiy tomondan nazariy va amaliy jihatdan o‘rganilishda korrupsiyaga qarshi kurashishda davlatlarning o‘ziga xos yondashuvlari va bu borada amalga oshirilayotgan amaliy ishlarning natijadorligi keng yoritilgan.

Kalit so‘zlar: jamiyat, siyosiy, korrupsiya, siyosiy iroda, jinoiy, korrupsion aloqa, parlament, prokurorlar, tergovchi, sud, subsidiyalar, turar joy, xokimiyat, monopoliya, mansabdor, vositachilik, poraxo‘rlilik, yuridik ensiklopediya.

Jamiyatning zamonaviy rivojlanish bosqichida korrupsiya hamma davlatlarda uchraydi, qayerdadir kamroq, qayerdadir ko‘proq. Bir qancha davlatlar o‘zining

siyosiy irodasini ko‘rsatib, o‘z jamiyatining bir tekis rivojlanishini ta‘minlash maqsadida korrupsiya bilan faol kurash olib bormoqda, biroq ba’zi bir davlatlarda bu jarayon qiyin ketmoqda. Bunday xolatda har bir davlat o‘ziga xos individual yondoshish orqali, ya’ni siyosiy o‘zgarishlar, qonunning takomillashtirishi maqsadga muvofiqdir. Bunday xolatlar iqtisodiy o‘shishni to‘xtatib turishga qodir⁵⁹. Shuni aytib o‘tish joizki, korrupsiya bilan kurashish muammosi birinchi bor g‘arb davlatlarining huquqiy aktlarida o‘z aksini topgan. Keyinchalik ham korrupsiya bilan bog‘liq muammolar xalqaro tashkilotlarda huquqiy kuchga ega bo‘ldi.

“Transperency International” kompaniyasining raisi Piter Aygenning fikricha, xalqaro tajribada korrupsiya, poraxo‘rlik “xayot elementi hisoblanadi”. Lekin bu xodisa bilan kurashmoq zarur. Shu bilan birga u koalitsiya tuzishga e’tiborni karatadi⁶⁰. SHuni aytib o‘tish joizki hozirgi vaqtga qadar korrupsiya tushunchasi to‘g‘risida aniq tushuncha olish va mutaxassislar o‘rtasida, shuningdek xalqaro konvensiya hujjatlarida va milliy qonunlikda mavjud emas. Bu vaziyatda korrupsiya ancha tortishishlimasaladir. Aytish joizki, mavjud bo‘lgan korrupsiyaning asosiy shakllari xalqaro qonunchilikda aks etgan. Lekin ko‘pgina manbalarda korrupsiya boshqacha talqin etiladi. Ko‘pgina davlatlar korrupsiyani har-xil shaklda ko‘rib chiqadilar⁶¹. Korrupsiya so‘zi nima? Va uning asosiy mohiyati nimadan iborat? Bu va boshqa savollarga javob berishga xarakat qilamiz.

“Corruption” so‘zi lotin tilidan kelib chiqib uning birinchi qismi “sorrei” Rim huquqi bo‘yicha bir nechta ishtirokchilarning biror bir predmetga bo‘lgan majburiyati, ikkinchi qismi “rumpere” -sindirmoq, shikast etkazmoq, buzmoq kabi tushuniladi. Evolyusiya natijasida “korrupsiya” so‘zi bir paytda o‘zgarishlarga ko‘z tutdi, misol uchun yuridik tushunchada bu so‘z ish faoliyatidagi “poraxo‘rlik” hisoblanadi.

Korrupsion aloqalarda I.V.Godunovning fikricha har doim 3 tomon kamida ishtirok etadi: davlat xizmatchisi, bir paytda ikki sabablarga ko‘ra noqonuniy rahbatlantirish evaziga manfaatdor tomonga ishlashi: manfaatdor tomon-noqonuniy foyda qilish; va jabr ko‘rgan tomon-albatta davlat, jamiyat raisi⁶² U.Mamadaliev fikricha, korrupsiya - bu ikki tomonlama kelishuvdir, ya’ni, davlat xizmatida bo‘lgan xizmatchi noqonuniy ravishda o‘z vakolati yoki xizmatini sotadi, sotib oluvchi esa davlat va boshqa bir tarmoqni o‘z maqsadi yo‘lida ishlatish imkoniyati paydo bo‘ladi⁶³.

A.Gurov - korrupsiya bilan kurashish muammosini o‘rganib turib, uning asosiy shakllarini ajratadi:

siyosiy - bunda mansabdor shaxsni biror-bir jamoa yoki qarindoshlari noqonuniy ishlarga qo‘l urishi;

⁵⁹ Сокращение роли государства. Государственное управление и человеческое развитие. ПРООН. // Под. рук. Джульетт Эль Хаж. - Нью-Йорк: 1997. - С.102.

⁶⁰ К обществу без коррупции. 2004. - № 2. - С.3.

⁶¹ Калныш В. Оценка тенденции коррупции и воздействия мер борьбы с коррупцией. - Стамбул, Турция, 30-31 мая 2005 г. - С.5.

⁶² И.В.Годунов Противодействие организованной преступности. - Москва: Высшая школа, 2003. - С.335.

⁶³ Научные доклады, сообщения и методические рекомендации по теме Коррупция. / Отв. за выпуск к.ю.н. Р.Т.Хакимов. - Т.: 2001. - С. 21.

jinoiy - bu holatda amaldor shaxslarni sotib olish va noqonuniy xizmatlarni ko‘rsatib mukofot puli oladi.

Ataylab ma‘lum bir darajadagi amaldor shaxslarni jinoiy ishga jalb etish va buning natijasida bir tomon vakillari juda qulay tizimga ega bo‘ladilar. Korrupsiyaning bu shakli uyushtirilgan jinoyat bilan chambarchas bo‘liqdir. Shuningdek, yuqori lavozimdagi amaldorlarni sotib olishdan tashqari, ularni ta‘qib etish va tahdid solish ham qo‘llaniladi.

Korrupsiyalashgan amaldor bir martalik sadaqani olmaydi, u jinoyatlarning tizimida xizmat qiladi va u yerda o‘ziga tegishli ulushini oladi⁶⁴. “Transparency International” tashkiloti, korrupsiyani oldini olishda, umumdavlat etikasi tuzilishi to‘g‘risida gap yuritadi: qabul qilanayotgan masalalarning oshkora va xisobot berib qabul qilish; bosh auditorning samarali ishi; mustaqil ommaviy axborot vositalari va ularning rasmiy axborot tizimiga kirish huquqi; xususiy sektorga ishonish; mustaqil sudlar, tergovchi va prokurorlar; saylangan parlament kerakli paytda davlat amaldorlaridan xisobot qilishi uchun.

BMTning korrupsiya bilan xalqaro kurash hujjatida quyidagilar deyilgan: “Korrupsiya - bu davlat xokimiyatining o‘z manfaatlari yo‘lida suiiste‘mol qilishdir⁶⁵.”

Ko‘pchilik davlatlar korrupsiya bilan kurashish tajribasiga asoslangan BMTning Kotibiyatining qo‘llanmasi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1. Davlat mulkini yuqori lavozimdagi amaldor shaxslar tomonidan o‘zlashtirish, o‘g‘irlash. 2. O‘zining manfaatlarini yo‘lida o‘z lavozimini suiste‘mol qilish. 3. SHaxsiy manfaatdorlik va jamiyat oldidagi burchining o‘rtasidagi to‘qnashuv⁶⁶.

O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasida, poraxo‘rluk - pora olish, pora olish-berishda vositachilik qilish tushunchalarini qamrab oladigan tushuncha deb kursatilgan⁶⁷.

Poraxo‘rluk turli tuman tadqiqotlarni umulashtirib, biz bo‘lg‘usi pora beruvchilarning va boshqalarning korrupsiya jarayoniga aralashgan qiziqishlarini tushunishga harakat qildik.

Ushbu zamonaviy tushunchalarni 4 asosiy qismga bo‘lish mumkin.

I toifa. Porani kamyob xizmatlar (a) yoki xarajatlarni kamaytirish uchun (b). I toifaga har xil byurokratik qarorlar kiradi, bu haqda pora beruvchining foydasi boshqaga zarar keltiradi. Masalan, eksporti-import operatsiyalarida, konvertatsiya qilishda, xukumat kontraktlarini olishda yoki xukumat tomonidan yangiliklarga erishish shuningdek neftni yoki boshqa foydali qazilmalarini qayta ishlash konsessillari, davlat erlarini bo‘lishda firmalar privatizatsiyasida tadbirkorlik faoliyati litsenziyallari olishda davlat tasarrufidagi kamyob fondlarga kirish jamiyatdagi yaxshi narsalarda ishtirok etish: turar joylar, subsidiyalar komitsiya tomonidan ish faoliyati ko‘proq ximoyalaniishi va x.k.

⁶⁴ Коррупция в Казахстане: меры по ее предупреждению и международный опыт. / Под ред. Злотникова С.М. – Алматы: ИЦОФ, Интеграл, 2003. - С.13.

⁶⁵ Справочный документ о международной борьбе с коррупцией. Секретариат ООН. A/CONF. 13 Apr. 1995.

⁶⁶ Практические меры борьбы с коррупцией. Руководство, подготовленное Секретариатом ООН. A/CONF. 29 May. 1995.

⁶⁷ Ўзбекистон юридик энциклопедияси. // Нашр учун масъул Р.А. Мухитдинов ва бошқ. – Т.: Адолат, 2009. – Б. 368.

II toifa. Pora xizmatlarni olish yoki xarajatlarni kamaytirish, bular kamyob emas lekin alohida davlat xizmatchilari qo‘lida bo‘ladi. Misol sifatida: soliqlarni kamaytirish yoki aniq baxosi bo‘lmaganda balandroq narx olish, bojxona soliqlaridan yoki qoidalaridan ozod qilish, baho nazoratidan kechish, ruxsat yoki letsenziyalarni faqat “malaka”si borlarga berish, jamoa xizmatlariga ishga kirish, qonuni bajarishdan qochish, qurilish proektlar uchun xududlarni tasdig‘i, xavfsizlik texnikasiga talabni kamaytirish.

III toifa. Biron - bir jamiyatdagi alohidalik, o‘sha alohidalikka ega bo‘lish uchun xizmat masalan, tezlik yoki hech kim bilmaydigan ma‘lumot uchun. III toifa oldingi ikkita toifa bilan bog‘liq ko‘proq foydali xizmatlarga ega bo‘lish alohida xizmatlarga ega bo‘lishga nisbatan boshqacha. Masalan, kontrakt bo‘yicha maxsus axborot haqida xizmat ko‘rsatishni tezlatish, qog‘ozbozlikni kamaytirish, politsiya tekshiruvlaridan vaqtliroq ogohlantirish, mavqumlikni kamaytirish yoki soliqlarni kamaytiruvchi auditorlik xulosalarni olish va x.k.

IV toifa. Pora: a) boshqalarni shu alohidalikka yaqilashtirmaslik uchun; b) boshqalarni qo‘shimcha harajatga tushurish uchun. IV toifa birinchi toifaga o‘xshab o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlariga ega bo‘lishi mumkin. Misol tariqasida noqonuniy biznes egasi qonun ximoyachilariga o‘zini raqibiga tekshiruvlar olib borishi uchun to‘laydi. Qonuniy biznes egasi esa raqibiga cheklashlar qo‘yilishi yoki mansabdorning bo‘lajak raqabiga litsenziya bermasligi uchun har xil yo‘lar izlashi mumkin. Bu misollar shuni ko‘rsatadiki muammo korrupsiyada emas, poraxo‘rlikni tug‘diradigan monopoliyalarida⁶⁸.

Xulosa safatida aytishimiz mumkin pora korrupsiyaning xarakterli va texnik ko‘rinishi va xavfli jinoyat xodisa bo‘lib, xokimiyatning yoki raxbarning hurmatini bo‘shashtiradi, axoli ko‘zi oldida obro‘sini tushuradi, fuqorolarning qiziqish va qonuniy huquqlariga putur yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сокращение роли государства. Gosudarstvennoe upravlenie i chelovecheskoe razvitie. PROON. // Pod. ruk. Djulett El Xaj. - Nyu-York: 1997. - S.102.
2. К обществу без коррупции. 2004. - № 2. - S.3.
3. Kalnyinsh V. Otsenka tendensii korrupsii i vozdeystviya mer borby s korrupsiey. - Stambul, Tursiya, 30-31 maya 2005 g. – S.5.
4. I.V.Godunov Protivodeystvie organizovannoy prestupnosti. – Moskva: Vysshaya shkola, 2003. - S.335.
5. Научные доклады, сообщения и методические рекомендации по теме Кorrupsiya. / Otv. za vypusk k.yu.n. R.T.Xakimov. – T.: 2001. - S. 21.
6. Korrupsiya v Kazaxstane: меры по ее предупреждению i mejdunarodnyy opyt. / Pod red. Zlotnikova S.M. – Almaty: ITSOF, Integral, 2003. - S.13.
7. Spravochnyy dokument o mejdunarodnoy borbe s korrupsiey. Sekretariat OON. A/CONF. 13 Apr. 1995.

⁶⁸ Alam. M. Shahid, 1991. Практические меры борьбы с коррупцией. Руководство, подготовленное Секретариатом ООН. A/CONF. 29 May. 1995.

8. Prakticheskie меры борьбы с коррупцией. Rukovodstvo, podgotovlennoe Sekretariatom OON. A/CONF. 29 Mau. 1995.
9. O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi. // Nashr uchun mas’ul R.A. Muxitdinov va boshq. – T.: Adolat, 2009. – B. 368.
10. Alam. M. Shahid, 1991. Prakticheskie меры борьбы с коррупцией. Rukovodstvo, podgotovlennoe Sekretariatom OON. A/CONF. 29 Mau. 1995.
11. Kumakovich T. A. et al. “RAQAMLI UNIVERSITET” TARAQQIYOT OMILI SIFATIDA //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 196-199.

ADIB E.VOHIDOV VA S. YESENIN SHE’RIYATIDAGI VATAN VA YURT TALQINIDA ONA TABIAT TASVIRI

Ernazarova Marxabo Norboevna

O‘zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali katta o‘qituvchisi

ernazarovamarhabo@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada E. Vohidov va S. Yesenin she’riyatida Vatan va yurt konsepti talqinida ona tabiat tasvirining o‘rni o‘rganiladi. Har ikki shoir ijodida tabiat obrazlari milliy identitet, ruhiy kechinma va Vatanga munosabatning asosiy poetik vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Maqolada tabiat obrazlarining semantik vazifasi, ularning konseptual mazmuni hamda ikki shoir poetikasidagi o‘xshashlik va farqlar qiyosiy tahlil asosida yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Vatan konsepti, tabiat tasviri, milliy ruh, poetik talqin, S. Yesenin, E. Vohidov.

Vatan va yurt konsepti har bir xalqning tarixiy xotirasi, ma’naviy qadriyatlari va milliy ruhiyatini ifodalovchi muhim madaniy birlikdir. Adabiyotda mazkur konsept ko‘pincha ona tabiat tasviri orqali ifodalanadi. Chunki tabiat obrazlari xalqning hayoti, turmush tarzi va estetik dunyoqarashiga eng yaqin hamda eng qadimiy timsol hisoblanadi.

E. Vohidov va S. Yesenin she’riyatida tabiat tasviri shoirlarning Vatanga bo‘lgan munosabatini, ruhiy dunyosini va milliy o‘ziga xoslikni aks ettiruvchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur maqolada ana shu tabiat obrazlarining funksional va semantik talqini ilmiy tahlil qilinadi. S. Yesenin she’riyatida Vatan va yurt talqinida tabiat tasvirining o‘rni

S. Yesenin she’riyatining asosiy poetik xususiyatlaridan biri — tabiat tasvirlari orqali Vatanni ifodalashdir. Uning ijodida tabiat Vatanning jonli ramzidir. Shoir uchun o‘rmon, dala, bulut, o‘rik daraxti — bularning barchasi shaxsiy kechinmalar va milliy ruhning poetik timsoliga aylanadi.

“Гой ты, Русь моя родная” she’rida shoir ona tabiatni mehr va sadoqat timsoli sifatida kuylaydi: